Konstitutsiyaviy islohotlar olimlar nigohida

O’zbekiston Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Konstitutsiyaviy islohotlar olimlar nigohida” mavzusida davra suhbatida Fanlar akademiyasida faoliyat olib borayotgan turli sohalarning taniqli olimlari, amaliyotchilar, ekspertlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Olimlar O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha ochiq muloqotni rivojlantirish, bu borada olimlar, amaliyotchilar, ekspertlarning o‘zaro fikr almashish hamda tegishli ilmiy asoslangan fikrlarni keng jamoatchilikka yetkazishda ilm ahlining ahamiyati katta ekanini alohida ta’kidlashdi.

Bugun mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar jamiyatimizning turli soha vakillari qatorida olimlar hayotida ham ulkan yangilanishlarga sabab bo‘lishi kutilmoqda. Shu bois ham Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat yuritayotgan har bir ilmiy xodim konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgarishlar mohiyatini to‘la anglagan holda uni atrofidagilarga ham yetkazishga harakat qilishmoqda. O‘tkazilayotgan davra suhbatida ham olimlar o‘zaro fikr almashish jarayonida bugun uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqishadi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ijtimoiy davlatni shakllantirish, ekologik muammolarni minimallashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni yaratish, raqamlashtirishning konstitutsiyaviy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, konstitutsiyaga kiritilayotgan muhim o'zgarishlar borasida fikr almashildi.

Davra suhbatida ishtirok etgan akademiklar, professorlar, ekspertlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish, jumladan, xususiy mulk daxlsizligi, inson huquqlari kafolatlari, ilmiy ijod erkinligi, jamoatchilik birlashmalari faoliyati bo‘yicha o’zgarishlarga bildirilgan qator fikr-mulohazalar qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ldi. Davra suhbati samimiy muloqat tarzida o’tkazildi.







